KUCH ADOLATDADIR Amir Temur


ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 6 (536) 2025-YIL, 15-FEVRAL

Zahiriddin Muhammad Boburning 542 yilligi



JAHON AHLI ARDOG'IDAGI MEROS



Keyingi yillarda mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini teran o'rganish, ularning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ'ib qilish, xususan, boburshunoslik fanini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi barcha ezgu va xayrli ishlar davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi hamda qo'llab-quvvatlovi bilan amalga oshirilayotgani, ayniqsa, e'tiborga molik. Zotan, jahon stivilizastiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan ota-bobolarimiz xotirasiga ko'rsatilayotgan chuqur ehtirom ularning ruhi oldida yuzimizni yorug' qilishi bilan birga, xalqimizning milliy g'ururini, ma'naviyatini yanada yuksaltiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur - jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri, buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda. Uning o'z davrida ulkan saltanat tuzgani, bebaho asarlari bilan tarix, geografiya, adabiyot va boshqa qator fanlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgani butun dunyoga ma'lum.

Ammo jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan bu siymoning tug'ilib o'sgan yurti, ajdodlari haqidagi bahs-munozaralar ayrim ilmiy doiralarda hali ham tingani yo'q.

Taassufki, ba'zi olimlar o'zlarining yuzaki qarashlari bilan jahon va mamlakatimiz boburshunoslik tarixidagi haqiqatlarni poymol qilayotgani hech qaysi mezonga to'g'ri kelmaydi.

Mumtoz adabiyotimizda "zodu bud" birikmasi ko'p uchraydi. Uning lug'aviy ma'nosi - tug'ilib o'sgan joy, demakdir. "Boburnoma"da Amir Temurning tug'ilib o'sgan joyi - zodu budi Kesh (Shahrisabz) ekani yoziladi: "Temurbekning zodu budi Keshdin uchun, shahar va poytaxt qilurig'a ko'p sa'y va ehtimomlar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi".

Xalqimizda "ona yurtim", "ota makonim" kabi iboralar ko'p ishlatiladi. Bu iboralar "tug'ilib o'sgan shahar, joy" mazmunida anglanadi. Ulug' shoh va shoir "ota viloyatim" deb Andijonni nazarda tutadi: "Ota viloyatim ikki yilga yaqinlashgan ediki, qo'ldan chiqqan edi. Tangri inoyati bilan... 904 (1499) yili yana menga muyassar bo'lib egallandi".

Alalxusus, Mirzo Bobur ijodi yuzasidan to'rt fundamental tadqiqot yaratgan yapon olimi Eyji Mano "Boburnoma" ilmiy tanqidiy matni so'zboshisida "Bobur Farg'ona davlatining poytaxti Andijonda tug'ilgan", deb yozadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat "Boburnoma"da, balki devonida ham o'zini andijonlik ya'ni "...g'aribing...andijoniydur", deb ta'kidlaydi:

Ne yerda bo'lsang, ey gul,
andadur chun joni Boburning,
G'aribingg'a tarahhum aylagilkim,
andijoniydur.

Bobur o'z g'azalida "andijonlik Qarib" deb atashi andijoniy (andijonlik) Boburning o'zi tug'ilib o'sgan shahri ayrilig'idan faryodi emasmi? Bunday izhortus misralarni yozish uchun kishi, albatta, Andijonda tug'ilmog'i, Vatan sog'inchini Boburdek tuymog'i lozim.

Bobur shunoslikdagi katta ilmiy yutuqlarimizdan biri - "Zaxiriddin Muxammad Babur. Baburidû. Bibliografiya" bibliografiya kitobining "Zahiriddin Muhammad Boburning qayerda tavallud topgani va kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar" qismida sakson bir manbada Andijonda tug'ilgani keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, Mirzo Boburning qaydlari, qolaversa, qator tarixiy faktlar uning ayni Andijon zaminida tug'ilganini dalillaydi va bahsli munozaraga yakun yasaydi, deb o'ylaymiz.

Mirzo Bobur singari ulug' zotlarni goh mamlakatlar, goh millat "o'ziniki" qilib olish "an'anasi" azaldan mavjud. Bunga ijobiy hodisa sifatida qarash to'g'ridir. Bashariyat uchun nihoyatda azizligini inobatga olib, ayta olamizki, Zahiriddin Muhammad Bobur butun bashariyatnikidir.

Shu bois ulug' bobomiz hayoti, ijodi va faoliyatiga doir osori-atiqalar butun dunyo bo'ylab tarqalib ketgan. Ularni o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib qilishda fondimiz alohida jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida yuzlab nasriy, nazmiy va tarjima asarlarning to'planishi hamda chop etilishi fondimiz jamoasining ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini baholovchi nodir hujjatlardir.

O'tgan yili arabshunos olim Shokirxon Rustamxo'jaev qalamiga mansub "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi bibliografiyasining uchinchi nashri ilmiy fondning qimmati va ahamiyatini oshirish bilan birga, tom ma'noda bobur shunoslikning yangi davriga yo'l ochadi, deyish mumkin.

Bobur Mirzoning ilmiy-adabiy merosini yagona tizimda jamlash maqsadida xalqaro bobur shunoslik ilmiy elektron platformasi tuzildi. Platforma yaratish vazifasi Prezidentimizning "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorida belgilab berilgan edi. Mirzo Bobur hayoti, ijodiga oid saralangan ilmiy-badiiy materiallar o'zbek, rus va ingliz tillarida yagona platformada jamlangan. Platformaning birinchi bosqichi Andijon viloyati hokimligi tomonidan moliyalashtirilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichi fondimiz mablag'lari homiyligida ishga tushirildi. Kelgusida platformaning mobil ilovasini ham ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda, bu esa ushbu ilmiy-elektron resursni yanada kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, fond boshqaruv kengashi tashabbusi bilan mamlakatimiz va jahonning yetuk bobur shunos olimlari ishtirokida qator yillardan buyon Bobur enstiklopediyasini yaratish ustida ish olib boryapmiz. Mamlakatimizda ilk bor "Zahiriddin Muhammad Bobur enstiklopediyasi" yaratilib, bugunga qadar ikki marotaba nashr qilindi. Hademay, bu qomusning o'zbek tilidagi uchinchi nashri hamda uning ingliz va rus tillariga tarjimalari dunyo yuzini ko'radi.

Bugungi kunda fondimizning Turkiya, Pokiston, Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlaridagi bo'limlari faoliyat yuritayotganini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, ayni kunlarda Bangladesh bo'limini ochish bo'yicha zarur kelishuv va muzokaralarni olib boryapmiz. Fond nafaqat xorijiy, balki mahalliy bo'limlar bilan ham doimiy muloqotda.

Sir emaski, dunyo bo'ylab turli tillarda chop etilgan "Boburnoma" asari o'zining madaniy va ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu noyob asarning turkman, qirg'iz, polyak va venger tillarida ham nashr etilishi uchun sa'y-harakatlar boshlab yuborilgan. Misol uchun, O'sh davlat universiteti bilan hamkorlikda "Boburnoma"ni qirg'iz tiliga tarjima qilishga bel bog'langan.


Fondimiz o'n besh yildan ortiq vaqt davomida Bobur Mirzo hayoti va ijodiga chuqur ehtirom bilan yondashadi. Maqsadimiz Bobur va boburiylar tarixi, adabiyotini o'rganish bilan birga kelajak avlodga ushbu buyuk shaxsning tafakkuri mahsulini asl holicha yetkazishdan iboratdir.

Zotan, jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga - uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhasida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda buyuk ajdodimizning bebaho merosini chuqur o'rganish, ularning teran mazmun-mohiyatidan ibrat va ruhiy quvvat olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bobur Mirzo asarlari, faoliyatini o'qib-o'rgangan avlod yangi O'zbekistonning chinakam bunyodkorlariga aylanishiga ishonchimiz komil.

Zokirjon MAShRABOV,
Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi raisi,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

«BOBUR SHU UYDA YASHAGANMI?»

Andijon markazidagi Eski shahar hududida muqaddas maskan bor. Markaziy ko'chaning yoqasida joylashgan bu yodgorlik "Zahiriddin Muhammad Boburning uy muzeyi" nomi bilan mashhur. Bu ob'ekt XIV asrda Xojar ismli shahar hukmdori tomonidan qurdirilgan. Madrasa Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzo arki o'ramida bo'lib, keyingi 7-8 asrda bir necha bor ta'mirlangan. Ushbu me'morchilik yodgorligi 27 ta hujra, 3 ta gumbazli darsxona, talabalarga mo'ljallangan kichkina yopiq va ayvonli namozgohdan iborat.



Muzeyda turli davrlarda yashab ijod qilgan rassomlar tomonidan ishlangan Boburiylar hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi 200 dan ortiq eksponatlar jamlangan. Ularda Boburning taxtga o'tirishi, Andijon qal'asi uchun bo'lib o'tgan jang, ov tasvirlari, Xo'ja Ahror Valiyning dafn marosimi, Xonzodabegimning Andijonni tark etishi, Shayboniyxon bilan bo'lgan jang voqealari ifodalangan. Rassom Hasanboy Saidov tomonidan yaratilgan "Bobur Baroqo'hda", "Gulxan atrofida o'tirgan Bobur", "Jangdan qaytgan Bobur" va "Boburning Andijonni tark etishi" nomli asarlarining har biri tarixning ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan jihatlarini o'zida ifoda etgan. Asarlarni tomosha qilgan kishi Boburning Baroqo'h tog'idagi qurilish ishlari bilan tanishish, qorli tog' bag'rida askarlar bilan muloqotidan voqif bo'lib qolmasdan, uning insonparvarlik xislatlariga ham guvoh bo'ladi. Ekspozistiyada "Boburnoma" asariga ishlangan miniatyuralar, Boburiylar sulolasining shajarasi ham o'rin olgan.

- Muzeyimizga tashrif buyurgan kishi Boburning bolaligidan to bosib o'tgan umr yo'li haqida yetarli ma'lumotga ega bo'ladi, - deydi muzey bo'lim mudiri Ulug'bek Tojiboev. - Bobur qalamiga mansub asarlar, hujjatlarning asl nusxalari mehmonlarning e'tiborini tortadi. Muzey mas'ullari tomonidan Bobur va Boburiylar davri hayotini o'zida aks ettiruvchi kompyuterlashtirilgan tasvirlar ustida ishlanmoqda. Kelgusida uy muzeyi hovlisida ajdodlarimiz turmush tarzi, faoliyatini ifoda etuvchi manzara barpo etiladi.

Saminjon HUSANOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

«BOBURNOMA» - YIRIK MEMUAR ASAR

"Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti ustuni. Jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan. Asarning "Boburiya", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi ko‘plab nomlari ham ma'lum.

Temuriylar tarixi haqida batafsil so‘ylaydigan yirik manba. Asarning o‘ndan ortiq qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ko‘plab dunyoviy, jumladan, fors, ingliz, rus, turk, golland, franstuz tillariga tarjima qilingan. Xususan, asar fors tiliga Boburning nabirasi, yirik hukmdor Akbarshoh amri bilan tarjima qilinadi, unga eng mahoratli hind rassomlari tomonidan miniatyuralar chizilgan. Hozirgi vaqtga qadar "Boburnoma" 25 dan ortiq tillarga tarjima qilingan.

Asar voqealari 12 yoshlik kichkina Boburning hukmdor bo‘lganidan boshlanadi. Asar birinchi shaxsdan so‘zlangan bo‘lib, unda Bobur hayotida ko‘rgan-kechirganlaridan tashqari, janglari, yurishlari, qadami yetgan shaharlar va maskanlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni qoldiradi.

Aytish mumkinki, "Boburnoma" har tomonlama ajib asar. Birinchidan, u avtobiografik-Bobur hayoti, zamondoshlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ikkinchidan, asar o‘sha davr geografiyasi, madaniyatshunosligi, san'ati, hattoki, o‘simliklar olami haqida ham ma'lumotlarga boy. Qiziq jihati shundaki, asarda 1508-yildan 1519-yilgacha bo‘lgan biror voqea kuzatilmaydi. Bu balki muallifning xohishi yoki qo‘lyozmaning turli sabablarda yo‘qolgan bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu asar Boburning har tomonlama yetuk, ziyrak, zukko shaxs bo‘lganidan dalolat beradi. Ayniqsa, asardagi hikmatlar qadrlidir. Unda sharqona donishmandlik aks etgan. Masalan: "...har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa, aning bilan amal qilmoq kerak", "agar ota yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish bilan badal qilmoq kerak" kabi nasihatlar ham uchraydi.

Boburnoma asosida bir qator badiiy asarlar yaratilgan. Xususan, franstuz adibasi Flora Anna Stilning "Boburxon", yana bir franstuz adibi Fernard Grenard "Bobur", amerikalik yozuvchi Harold Lembning "Bobur yo‘lbars" romanlari. Hindistonlik Muni La'l boburiylar tarixiga asoslanib 6 ta roman yozgan. O‘zbek adabiyotida esa Oybek, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron kabi yozuvchilar Boburga atab qissa-romanlar yozgan.

M.MAMATQULOV tayyorladi.

HUJJATLAR NUSXALARINING VA HUJJATLARDAN OLINGAN KO‘CHIRMALARNING TO‘G‘RILIGINI QANDAY SHAHODATLANADI?

Notariuslar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan hujjatlar ko‘chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi.

Xizmatni olish uchun talab etiladigan hujjatlar:

Fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy bileti bundan mustasno);

chet el fuqarolarining shaxsi - ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq chet el fuqarolari tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun - O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Hujjatni asl nusxasi (yoki hujjat asl nusxasidan ko‘chirilgan nusxaning to‘g‘riligi notarial tartibda shahodatlangan bo‘lsa yoki hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo‘lsa. Hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo‘lsa, hujjatning nusxasi mazkur yuridik shaxsning blankasida bayon etilgan, muhr bosib tasdiqlangan va unda shu hujjatning asli mazkur tashkilotda ekanligi yozib qo‘yilgan bo‘lishi kerak).

Ko‘chirma olinayotgan hujjatda o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan bir nechta alohida masalalarga oid qarorlar bo‘lgan taqdirdagina ko‘chirmaning to‘g‘riligi shahodatlanishi mumkin. Ko‘chirma hujjatning muayyan masalaga doir qismining to‘la matnini aks ettirishi kerak.

Notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi.

Fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra notarial idoraga bora olmaydigan ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur fuqaro turgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Qonunchilikda notarial harakatlar notarial idoralarning binolaridan tashqarida amalga oshiriladigan boshqa hollar ham nazarda tutilishi mumkin.

Notariuslarning, notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respubliasining "Notariat to‘g‘risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Notarial harakatni amalga oshirish chog‘ida notariuslar tomonidan audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilishi mumkin.

Notarial harakatlar haq to‘langanidan so‘ng zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi.

G.MATKARIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi tomonidan jurnalistika sohasiga qiziquvchi yoshlar uchun an'anaviy tarzda "Yosh jurnalistlar mahorat maktabi" to‘garagi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, shu kunga qadar to‘garakni muvaffaqiyatli tamomlagan ko‘plab yoshlar OTM larining jurnalistika yo‘nalishida tahsil olib kelmoqdalar.

An'anaga sodiq qolgan holda "Yosh jurnalistlar mahorat maktabi" ga navbatdagi kasting bo‘lib o‘tdi. Saralash bosqichida qirq besh nafar jurnalistika sohasiga qiziquvchi yoshlar ishtirok etdilar.

-Men jurnalistika sohasiga qiziqaman, kasting boshlanganini eshitib oldimga qo‘ygan yuksak maqsadlarimni ro‘yobga chiqarish uchun kastingga keldim. Niyatim yetuk jurnalist bo‘lish, - deydi ishtirokchilardan biri Zulfiya Hakimova.

JURNALISTIKAGA QIZIQUVCHILAR UCHUN KASTING BO‘LIB O‘TDI



To‘garakka qabul qilingan yoshlar uchun tez orada o‘quv jarayonlari boshlanadi.

M.MAMATQULOV,
Buxoro Davlat universiteti jurnalistika fakulteti 1-boqich talabasi.

KONSULLAR TOMONIDAN QANDAY NOTARIAL HARAKATLAR AMALGA OSHIRILADI?

O‘zbekiston Respublikasi "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunining 28-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining 27-moddasiga muvofiq konsullar quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

bitimlarni, kvartira, dala hovli, bog‘ hovli, garajni, shuningdek boshqa bino, inshootni yoki imoratni boshqa shaxsga o‘tkazish va garovga qo‘yish to‘g‘risidagi shartnomalar bundan mustasno;

fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;

fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;

meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir choratadbirlar ko‘radi;

merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar beradi;

er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi haqida guvohnomalar beradi;

hujjatlarning nusxalari va hujjatlardan olingan ko‘chirmalar to‘g‘riligini shahodatlaydi;

hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi;

hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;

pul summalari va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;

saqlash uchun hujjatlarni qabul qilib oladi;

ijro xatlarini yozadi;

dengiz protestlarini amalga oshiradi.

Konsullar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Konsullar notarial harakatlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga amal qiladi.

Agar konsul biron sababga ko‘ra notarial harakatni amalga oshira olmaydigan bo‘lsa yoki uning lavozimi vaqtincha bo‘sh bo‘lsa, notarial harakatlarni amalga oshirish ushbu konsullik muassasasining yoki konsullik muassasasi joylashgan davlatdagi boshqa konsullik muassasasining boshqa mansabdor shaxsi zimmasiga yoxud shu davlatdagi O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining diplomatik xodimlaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Konsullarning amalga oshirilayotgan notarial harakatlar haqida o‘zlariga ma'lum bo‘lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlarning maxfiyligini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Konsullik muassasasida notarial ish yuritishlar O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida amalga oshiriladi. Agar notarial harakatni bajarish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa, notarial harakatni bajarayotgan konsul yoki konsul taniydigan tarjimon rasmiylashtirilayotgan hujjatlarning matnlarini unga tarjima qilib berishi lozim. Bu haqda hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga kim tomonidan tarjima qilinganligi va matn mazmuni tushuntirilganligi haqida konsul tomonidan yozib qo‘yilishi, imzolanishi va muhr qo‘yilishi kerak. Bunday holda murojaat qilgan shaxs o‘zi biladigan tilda ismi, familiyasi, otasining ismini to‘liq yozib, imzo qo‘yadi.

Konsullar fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatiga ko‘ra bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar loyihalarini tuzadi, hujjatlarning ko‘chirma nusxalari va dublikatlarini, ulardan ko‘chirmalarni tayyorlaydi, shuningdek notarial harakatlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan tushuntirishlar beradi.

Agar notarial harakatni bajarish O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lsa, konsul bunday harakatni bajarishni rad etadi.

Notarial harakatni bajarish to‘g‘risidagi murojaati rad etilgan shaxsning iltimosiga binoan unga rad etishning sabablari bayon qilinishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntirib berilishi lozim.

S.BATIROV,
Izboskan tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISHNI TO‘XTATIB TURISH VA KECHIKTIRISH TARTIBI, MUDDATLARI VA HUQUQIY ASOSLARI

Notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog‘liq huquqiy va texnik tusdagi harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

"Notariat to‘g‘risida"gi Qonunda nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish va ushbu notarial harakatlarni to‘xtatib turish muddatlari quyidagicha amalga oshiriladi. Bunda notarial harakatlar haq to‘langanidan so‘ng zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi.

Notarial harakatni amalga oshirish qo‘shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo‘lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo‘qligini so‘rash zarur bo‘lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim. Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko‘ra unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi.

Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so‘rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashish uchun sudga murojaat qilish istagidagi boshqa manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra notarial harakatni amalga oshirish bir marotaba ko‘pi bilan o‘n kun muddatga kechiktirilishi mumkin. Agar bu muddat ichida ariza tushganligi haqida suddan ma'lumot olinmasa, notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Bir manfaatdor shaxs tasdiqlashni so‘rayotgan huquq yoki fakt ustida da'volashayotgan boshqa manfaatdor shaxsdan ariza tushganligi to‘g‘risida suddan ma'lumot olingan taqdirda notarial harakatni amalga oshirish mazkur ish sudda hal bo‘lguniga qadar to‘xtatib turiladi.

Qonunchilikda notarial harakatlarni amalga oshirishni kechiktirish va to‘xtatib turishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

Muxiddin JURAEV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Ma'lumki, yurtimizda aholi va ayniqsa, yoshlar orasida yangi qabul qilinayotgan qonun va qonun hujjatlarning mazmun-mohiyatini etkazish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bu borada prokuratura organlari tizimi xodimlari o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda. Ular mahallalarda, ta'lim tashkilotlari va uyushmagan yoshlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini muntazam o‘tkazib kelmoqda.

Quyida ular tomonidan taqdim etilgan "Qonunchilikdagi yangiliklar" rukni ostida tayyorlagan materiallari bilan tanishasiz.



YOQILG‘I-ENERGETIKA RESURSLARIDAN NOQONUNIY FOYDALANISH HOLATLARINI ANIQLASH TARTIBI SODDALASHTIRILDI

O‘zbekistonda energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashish bo‘yicha davlat nazorati kuchaytiriladi. Prezidentning 2025-yil 10-fevralda imzolagan "Energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlariga qarshi kurashish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi farmonida bu borada muhim o‘zgarishlar belgilandi.

Farmonga muvofiq, yoqilg‘i-energetika resurslarini samarasiz va noqonuniy ishlatish, sifatsiz yoqilg‘i mahsulotlarini sotishga chek qo‘yish mexanizmlari takomillashtiriladi. Bunda asosiy maqsad yoqilg‘i resurslarining shaffof taqsimlanishini ta'minlash, davlat nazoratini kuchaytirish va resurslarning noqonuniy savdosiga barham berishdir.

Ushbu o‘zgartishlarga muvofiq, Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspekstiyasi (O‘z-energoinspekstiya)ga qator yangi vakolatlar berildi. Xususan, inspekstiya yoqilg‘i resurslarini qazib olish, ishlab chiqarish, saqlash, sotish va iste'mol qilish jarayonlarida nazorat tadbirlarini amalga oshiradi.

Jumladan, Inspekstiya tomonidan yoqilg‘i-energetika resurslarini qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish, saqlash, yetkazib berish (taqsimlash, sotish) va iste'mol qilish faoliyati bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarda ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi bo‘yicha o‘tkaziladigan nazorat tadbirlari doirasida sutkaning istalgan vaqtida o‘tkaziladigan tekshiruvlar tekshiruv boshlangandan so‘ng 24 soat ichida "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro‘yxatga olish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida amalga oshiriladi.

Bunda ushbu tekshiruvlarga mas'ul bo‘lgan xodimlar tadbirkorlik sub'ekti tomonidan taqdim etilgan Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobini tekshiruv yakuniga yetishi bilan to‘ldirishi shart.

Eng muhim yangiliklardan biri shundaki, tekshiruvlar endilikda sutkaning istalgan vaqtida o‘tkazilishi mumkin. Tekshiruv boshlanganidan so‘ng 24 soat ichida "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro‘yxatga olingan holda tegishli organlar xabardor qilinadi. Bu esa noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning nazoratdan chetda qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi.

Shuningdek, sifatsiz yoqilg‘i mahsulotlarining bozorga chiqishini oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha choralar ham ko‘zda tutilgan. Bunda sifatsiz yoqilg‘i ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qattiq javobgarlik choralari qo‘llanishi mumkin.

Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekistonda energiya resurslaridan samarali foydalanish, korrupstiyaga barham berish va energetika tizimini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo‘lib, istiqbolda resurslarning tejamkorligi va shaffof taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bekmurod ISAQOV,
Marhamat tumani prokurorining katta yordamchisi.

JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA YANGI YO‘NALISH

Jinoyatchilik - bu jamiyatni tanazzulga yetaklovchi illat. Uning ko‘rinishlari turlicha bo‘lib, sodir etilish maqsadi, usuli va boshqa farqli jihatlari bilan farqlanadi. Xalq orasida o‘g‘irlik, qotillik, firibgarlik, xiyonat va shunga o‘xshash tushunchalar bilan ataladi. Jinoyatchilik qanday nomlanishidan qat'iy nazar jamiyat uchun xavfliligicha qoladi va uni tanazzulga yetaklaydi.

Bugun mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning oldini barvaqt olish tizimida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qaror bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligi sohalariga mas'ul idoralar uchun 2025-yilda "Har bir mahallada huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Prezidentimizning ushbu qarorlari huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatida yangi bir bosqichni boshlab berdi. Shahar va tumanlardagi 4 ta sektor rahbarlariga aniq vazifalar belgilandi. Vazifaga asosan har bir sektor rahbariga tumandagi vaziyati og‘ir va "qizil" toifadagi, ijtimoiy ko‘magi og‘ir bo‘lgan mahallalar nomma-nom biriktirildi.

Joriy yilning 1-martidan profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimi tugatilib, ularning negizida mahallalarda, ma'muriy amaliyot guruhlari sinov tariqasida joriy etiladi. Ma'muriy amaliyot guruhining asosiy vazifasi jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qarorlarini o‘rganib chiqib, ularda huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda ma'muriy bayonnomalar tuzadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan va jazo muqarrarligini ta'minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, har bir mahallaning kriminogen vaziyatidan kelib chiqib, ayrim viloyat hududlarida mahalla huquq tartibot maskani joriy etiladi. Maskanning o‘z faoliyatida profilaktika inspektori, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha inspektor, probastiya bo‘limi xodim, davlat yo‘l harakati xavfsizligi xodimi hamda tezkor vakillardan iborat hududiy doimiy ravishda ishlaydigan tuzilma faoliyat olib boradi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish profilaktika bosh inspektori lavozimi joriy etilib, uning vazifasi etib belgilanadi.

E'tiborli yana bir jihat, endilikda mahalliy hokimliklarga har oyda har bir tumanning to‘rtta sektorida kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarda kamida ikkitadan "namunali xavfsiz ko‘cha" va beshtadan "namunali xavfsiz yo‘lak" tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur ishlar mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga, bu borada mas'ul davlat organlari va muassasalar tomonidan manzilli chora-tadbirlar ko‘rilishiga xizmat qiladi.

Qolaversa, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning balki oila, mahalla, maktab va boshqa jamoat birlashmalarining ham birdek vazifasi hisoblanadi.

Aytaylik oilada, mahallada va maktabda bola tarbiyasiga nisbatan bo‘lgan bugungi befarqlik kelgusida davlatning rivojiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Axir kelajak yoshlar qo‘lida degan ibora bejizga aytilmagan.

Islombek XALIMOV,
Marhamat tumani prokuraturasi tergovchisi.

Mamlakatimizda voyaga etmaganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 57-moddasida "Mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI - QONUN HIMOYASIDA

to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radi.

Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob'ektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi." deb belgilangan.

77-moddasida esa "Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi." deb mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib 1992 yili "Bola huquqlari to‘g‘risida"gi Konvenstiyani ratifikastiya qildi. Milliy qonunchiligimizni konvenstiya qoidalariga implementastiya qilish asnosida 2008 yil 7 yanvarda "Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi.

Ayniqsa, so‘ngi yillarda mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog‘liq islohotlar natijasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib baholanmoqda.

Xususan, Xalqaro Mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirgan monitoring natijasida hamda dunyo hamjamiyati vakillari bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo‘yicha O‘zbekistonda ijobiy ishlar qilinganini e'tirof etdi. 2019 yilning 1 aprelida Bryussel shahrida e'lon qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotida Jahon banki O‘zbekiston paxta sanoatida bolalar va majburiy mehnatdan tizimli foydalanishga barham berilgani e'lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zlab unda inson huquqlari sohasidagi holat ham butunlay o‘zgarganligi hamda majburiy va bolalar mehnati to‘liq tugatilganligi ma'lum qilindi.

BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvenstiyasi talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida 2019 yilning 22 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 4296-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari - Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etildi va Kotibiyat tuzilmasida bola huquqlarini ta'minlash faoliyatiga ko‘maklashuvchi yangi sektor tuzildi.

Amirbek ULUG‘BEKOV,
Marhamat tumani prokurorining yordamchisi.

FUQAROLAR YIG‘INI RAISLARINING VAKOLAT MUDDATI BESH YILGACHA UZAYTIRILDI



2025-yil 11-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi O‘RQ-1027-son Qonun bilan fuqarolar yig‘ini raislarini saylovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi takomillashtirildi.

Qonun bilan "Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida"gi va "Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi to‘g‘risida"gi qonunlarga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda:

fuqarolar yig‘ini raisining vakolat muddatini uch yildan besh yilgacha uzaytirish;

fuqarolar yig‘ini raislarini bo‘sh o‘rinlarga besh yil muddatga saylash;

fuqarolar yig‘ini raislarini saylovini tashkil etish va o‘tkazishda ko‘maklashuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalarining vakolatlarini aniqlashtirish.

Shuningdek, fuqarolar yig‘inlari raislari saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar komissiyalarining vakolatlari aniqlashtirildi.

Qonun amalga kiritilguniga qadar saylangan fuqarolar yig‘inlari raislari o‘z vakolatlarini ular saylangan 3 yillik muddat tugaguniga qadar amalga oshiradi.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ma'lumot uchun, fuqarolar yig‘ini raisini saylash huquqiga saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi, ovuldagi mahalla hududida doimiy yashovchi fuqarolar ega.

Fuqarolar yig‘ini raisi saylovi ikki va undan ko‘p nomzod ko‘rsatilgan holda amalga oshiriladi. Saylashda fuqarolar yig‘inining (fuqarolar vakillari yig‘ilishining) har bir ishtirokchisi bir ovozga ega bo‘ladi.

Mazkur Qonun fuqarolar yig‘ini raislari faoliyatini va ularning saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishda ko‘maklashuvchi komissiyalar ishini samarali tashkil etishga xizmat qilishi ta'kidlanmoqda.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar saylangan fuqarolar yig‘ini raislari o‘z vakolatlarini ular saylangan uch yillik muddat tugaguniga qadar amalga oshiradi.

Hujjat "Xalq so‘zi" gazetasida e'lon qilingan va 2025-yil 12-fevraldan kuchga kirdi.

Shohjahon NISHONOV,
Marhamat tumani prokurorining yordamchisi.

BILDIRUV

QURILISH TASHKILOTLARI DIQQATIGA!

Andijon shahridagi maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi (Andijon shahar, Mustaqillik MFY, A.Xaydarov ko'chasi, 72-uy) 13-sonli maktabgacha ta'lim tashkilot binosi yangi qurilish ishlarini olib borilishi munosabati bilan qurilish tashkilotlarini maktabgacha ta'lim tashkilot binosini buzish uchun tanlovga taklif qiladi.

Arizalar Andijon shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida qabul qilinadi.

Aloqa uchun telefon raqamlari: 97-995-09-19, 74-225-28-18.

MEROSXЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Қайрағочтаги МФЙ, Ёрбоши кўчаси, 10-уйда яшаб, 2023 йил 4 январь куни вафот этган марҳум **MAMADJANOV ASRALXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши расмийлаштирилаётганлиги муносабати билан марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Лермонтов кўчаси, 9-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Мамарасулова нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Т.Келдиев кўчаси, 100-уйда яшаб, 2024 йил 15 август куни вафот этган марҳума **КЕЛДИЕВА ШАХИДА ТУХТАСИНОВНА,**

Андижон шаҳри, Соғлом авлод МФЙ, 2-кичик даҳа кўчаси, 5-уй, 43-хонадонда яшаб, 2024 йил 8 август куни вафот этган марҳума **TADJIBAYEVA TATYANA IBRAGIMOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши расмийлаштирилаётганлиги муносабати билан марҳумаларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Фитрат шоҳкўчаси, 189/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ж.С.Мамаюнусов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 19 март куни вафот этган марҳума **ЮЛДАШЕВА АДОЛАТХОН,**

Андижон туманида яшаб, 2006 йил 19 май куни вафот этган марҳум **ХОЛДАРОВ КЎЗИБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Бахт МФЙ, Олтин водий кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Қ.Гуломжонов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2024 йил 1 январь куни вафот этган марҳума **ESANOVA OROPATXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани Нўхатак МФЙ Матбуотчи кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.И.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Найзақайрахоч МФЙ, Шодлик кўчаси, 29-уйда яшаб, 2018 йил 12 ноябрь куни вафот этган марҳум **ХАЛИКОВ ЭСАНБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Хонобод МФЙ, А.Навоий кўчаси, 4 Индивидуалний уйда яшаб, 2019 йил 6 август куни вафот этган марҳум **ТУРГУНОВ АЗАМАТЖОН ЖАМАЛДИНОВИЧ,**

Хонобод шаҳри, Хонтог МФЙ, Зиёкор кўчаси, 46 уйда яшаб, 2024 йил 15 сентябрь куни вафот этган марҳума **XVAN LYUDMILA MIXAILOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманида яшаб, 2024 йил 27 декабрь куни вафот этган марҳума **ALIBAYEVA MUYASSAR MAMARASULOVNA,**

Жалақудуқ туманида яшаб, 2017 йил 23 апрель куни вафот этган марҳума **XOJIYEVA SHAKARXON,**

Жалақудуқ туманида яшаб, 2011 йил 11 декабрь куни вафот этган марҳум **ТУЛАНОВ ЭРГАШБОЙ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Тошлоқ МФЙдаги уйда яшаб, 2017 йил 9 декабрь куни вафот этган марҳум **XAMRAYEV AKBAR,**

Марҳамат тумани, Барҳаёт МФЙдаги уйда яшаб, 2020 йил 5 октябрь куни вафот этган марҳум **ПРИМҚУЛОВ СОТВОЛДИ ҒОЗБОЛАЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Алитепа МФЙ, Қипчоқ кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 24 июль куни вафот этган марҳум **СУЛТОНОВ СОБИР ИСАМБОЕВИЧ,**

Марҳамат тумани, Дурафшон МФЙ, Шукурмерган кўчасидаги уйда яшаб, 2009 йил 5 июнь куни вафот этган марҳум **ХОЛМИРЗАЕВ МЕЛИБОЙ,**

Марҳамат тумани, Ғофур Ғулом МФЙ, Юксалиш кўчасидаги уйда яшаб, 2010 йил 21 июнь куни вафот этган марҳум **САЙФУТДИНОВ СОТВОЛДИ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Усмонов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Қашқарлик МФЙ, Нақшбанд кўчасидаги уйда яшаб, 2017 йил 16 декабрь куни вафот этган марҳум **ИРГАШЕВ УСМОНЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Бешмирза МФЙ, Шодиёна кўчасидаги уйда яшаб, 2022 йил 21 ноябрь куни вафот этган марҳум **ARTIKOV ZIKIRYOXON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Куйганёр МФЙ, Маданият йўли кўчаси, 4 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Акбаров нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2014 йил 16 август куни вафот этган марҳум **РАХИМОВ АБДУЛЛАХАТ АБДУКАЮМОВИЧ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2025 йил 2 январь куни вафот этган марҳум **ХУДАЙБЕРДИЕВ КАЗИМЖОН АЗИМЖОНОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Илтифот МФЙда яшаб, 2024 йил 28 апрель куни вафот этган марҳум **СУЛТОНОВ ТУРСИНБАЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги турмуш МФЙда яшаб, 2024 йил 20 июнда вафот этган марҳум **ABDUSALOM ISMOILOV,**

Шаҳрихон тумани, Қипчақўрғон МФЙда яшаб, 2018 йил 17 апрелда вафот этган марҳума **Tursunxon Zokirovna ERHASHEVA,**

Шаҳрихон тумани, Дориломон МФЙда яшаб, 2000 йил 15 сентябрда вафот этган марҳум **Расулжон НАЗАРОВ,**

Шаҳрихон тумани, Байроқ МФЙда яшаб, 2016 йил 12 апрелда вафот этган марҳум **ХАБИБУЛЛО МАДАМИНОВИЧ ҚОРАБОЕВ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қўрғонча МФЙда яшаб, 2012 йил 14 майда вафот этган марҳум **МУХАММАДЖОН РАХМОНОВ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қоракўрпа МФЙда яшаб, 2021 йил 22 декабрда вафот этган марҳум **РУСТАМЖОН САЛИЕВИЧ МАМАДЖАНОВ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Чинобод кўчаси, 10-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Ибрагимов нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 2013 йил 16 июнда вафот этган марҳум **BAHODIRJON ZAIDOVICH NAZIROV**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 14.02.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 14.02.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000120. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li